

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA XALQONA USLUBNING QO'LLANILISHI

Usarova Laylo Ibragimovna,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

laylousarova14@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripov ijodida bir qancha uslublar qatori xalqona uslubning qo'llanilish, aynan ushbu uslub asosida yaratilgan lirik asarlar tahlili tahlil qilib berilgan. Maqolada adibning "Bahor" she'rining xalqona sozlardan foydalangan tahlili ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Ritorika, poetika, voqelik, xalqona, lirika, peyzaj, she'r, uslub ijod, ona bag'ri, o'zbek ruhiyati, ifoda, badiiy asar, adabiy, peyzaj, badiiy ifoda.

ABDULLA ORIPOV'UN LIRIKASINDA ULUSAL ÜSLUPUN UYGULANMASI

Usarova Laylo Ibragimovna,

Özbekistan-Finlandiya pedagogi enstitüsü doçenti

Özet. Bu makalede, Abdulla Aripov'un eserlerinde çeşitli üsluplar arasında halk üslubunun kullanımı ve bu üslup temelinde yaratılan lirik eserlerin analizi analiz edilmiştir. Makalede, yazarın "Bahor" şiirinin halk sözcüklerini kullanan bir analizi gösterilmiştir.

Anahtar kelimeler. Ritorik, poetika, gerçeklik, halkça, lirik, manzara, şiir, üslup yaratıcılık, anne bağı, Özbek ruhu, ifade, sanat eseri, edebi, manzara, sanatsal ifade.

ПРИМЕНЕНИЕ НАРОДНОГО СТИЛЯ В ЛИРИКЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Усарова Лайло Ибрагимовна,

доцента Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье анализируется использование народного стиля наряду с несколькими другими стилями в творчестве Абдуллы Орипова, а также анализ лирических произведений, созданных на основе этого стиля. В статье представлен анализ стихотворения писателя "Весна" с использованием народных слов.

Ключевые слова. Риторика, поэтика, реальность, народная, лирика, пейзаж, стихотворение, стиль, творчество, материнское сердце, узбекская психика, выражение, художественное произведение, литература, пейзаж, художественное выражение.

THE USE OF FOLK STYLE IN THE LYRICS OF ABDULLA ORIPOV

Usarova Laylo Ibragimovna,

Uzbekistan-Finland pedagogical institute associate professor

Abstract. This article analyzes the use of folk style, along with a number of other styles, in the work of Abdulla Oripov, and the analysis of lyrical works created based on this style. The article presents an analysis of the poet's poem "Spring" using folk words.

Keywords. Rhetoric, poetics, reality, folk, lyrics, landscape, poetry, style of creation, mother's embrace, Uzbek spirit, expression, artistic work, literary, landscape, artistic expression.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati” mualliflarining fikricha: “Uslubda namoyon bo‘luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko‘zga tashlanadi. Ya’ni uslub badiiy shaklning unsuri emas,

balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta'minlaydi, har bir unurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi" [1]. Agar ushbu nazariy fikrlar xalqona uslubga tatbiq etilsa, u xalq tiliga xos ifoda tarzini, voqelikni tasvirlashning xalqona yo'lini, xalqning ruhini tajassum etishi ayon bo'ladi.

Abdulla Oripovning mashhur "Bahor" she'ri xalqona uslubning o'ziga xos aks etgani bilan alohida ajralib turadi. Mana, she'rdan ayrim misollar:

*Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.
Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.*

Uyqudan uyg'ongan yelning kaft ishqalashi – tashxisning betakror namunasi bo'lgan ushbu satr chin ma'noda milliy ruh bilan sug'orilgan. Zero, ayni shu odat – uyqudan turganda kaftni ishqalash o'zbekkagina xos xususiyat ekani ma'lum. Bunday noyob xalqona ifodani shoir dabdurdustdan o'ylab topishi qiyin. Bu kabi quyma satrlar, odatda, yaxlit holda tug'iladi. *Tog'larning yuk tashlashi* – ular tepasidagi qorlar erishini ayni uslubda faqat o'zbekona ifoda etadi. Metaforik tasvirni xalqona uslub zahiriga qura olish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Yuqoridagi ikki satrda ana shunday san'atkorlik mukammal suratda namoyon bo'lganini ta'kidlash kerak.

*Hattoki tuyg'usiz chirik xazon ham
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.*

Abdulla Oripov – xalq tilining bilimdoni. U xalq orasida qo'llanib, adabiy tilda faol bo'lmagan noyob so'zlarni xuddi qimmatbaho javohirni izlagan kabi nuqtadonlik ila topadi, she'rda mahorat bilan qo'llaydi. Yuqoridagi iqtibosda qo'llangan "*po'panak*" so'zi xalq orasida tez-tez ishlatilsa-da, adabiy tilda kam kuzatiladi. "*Tuyg'usiz chirik xazon*" va "*yashil po'panak*" jumllaridagi ma'no ziddi – tazod ham shoirning so'zni san'at darajasida qo'llay olishini ko'rsatadi. Zero, "Individual uslub, stil, manera, albatta, birinchi navbatda, shoir shaxsi bilan, uning voqelikka o'zicha mustaqil va original qaray olish qobiliyati bilan, o'zi ko'rgan muhim narsalarni original formada ifoda qilib berish iste'dodi bilan bog'liq" [2]. Abdulla Oripov o'z she'rlari bilan bu borada mislsiz salohiyat sohibi ekanini yaqqol isbotlay olgan ijodkor. Shoir she'rlarining tahlili ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

O'zbekning ruhiyatini xalqona uslubda ifodalashni maqsad qilgan shoir tabiat va inson munosabatlaridagi mutanosiblikni quyidagicha talqin etadi:

*Ona bag'ri kabi iliqdir olam,
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,
Demak, bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z.*

Bahor kelishi bilan ona-tabiat uyg'onadi, g'am-tashvishlar shoir ta'biri bilan aytganda, "*puchmoq*"larda qolgan "*xazon*" yanglig' yo'qola boradi. Qahraton qishning sovuq kunlarini uyquda o'tkazgan tabiat quyoshning iliq taftidan jonlanadi. Yer qa'ridan kelgan issiqlik *harir hovur* bo'lib ko'tarilar va bunday go'zallikni his etgan ko'ngillardan, albatta, g'am-tashvish yiroqlashadi. Shoir ana shu go'zallikni *Ona bag'ri, harir hovur, puchmoqlarda qolgan xazon* kabi xalq orasida keng ishlatiladigan jumlar vositasida tasvir etadi. Bahorning kirib kelishi, tabiatning yashnashi, Navro'z bayrami, haqiqatan ham, ko'ngillarni quvonchga to'ldiradi.

Quyidagi misralarda esa shoir o'z tabiatini ifodalash uchun xalqqa tanish rivoyatlarga ishora etadi:

*O'zbekman, inshoolloh, iymonim butun,
Tilim qisiq emas bashariyatdan.*

*Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun,
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.*

Inson tabiati uning "zuvala"si qanday yaratilgani bilan bog'liq ekani haqidagi rivoyatlarga ishora etgan shoir o'z qalbida samimiylik borligini inkor etmaydi. Haqiqatan ham, o'sha samimiy tuyg'ular shoirning chinakam iste'dodini ro'yobga chiqardi. *Tili qisiq* iborasi salbiy ma'noni anglatishi ma'lum. Shoir bashariyatdan tili qisiq emasligini baralla ayta oladi, chunki iymoni but va o'z xalqi oldida aybsiz, ayniqsa, o'zbek ekanidan faxrlanadi. O'z millatiga bo'lgan cheksiz muhabbatini samimiyat bilan ifodalagan shoir ijodi shuning uchun ham xalq ko'nglidan chuqur joy oldi.

*Taralsa elimdan xushnud bir xabar,
Tabrik aylamog'im, demak, muqarrar.
Mayliga nogohon kimdir tosh otgay,
Zarbi yuragimning tubiga botgay.
Elim, qadamingni har dam kuzatdim,
Goh o'ychan, gohida xurram kuzatdim.
Gar sen daryo bo'lsang – irmog'ingdirman,
Lat yesang, og'riqli barmog'ingdirman.*

Abdulla Oripov tabiatan xalq dardini o'zining dardi kabi qabul etgan, shuning uchun ham o'zini xalqning dard chekkan "og'riqli barmog'"iga qiyos etmoqda. Shoir o'zini Vatanning og'riqli barmog'iga o'xshatishiga sabab shuki, bu jumla bilan xalq uchun, Vatan uchun chinakam fidokor farzand ekanini ta'kidlamog'ida. Maqsad – insonlarda fidokorona ruh bilan yashash hissini uyg'otish! O'zbek xalqining mard va jasur o'g'lonlari ota-bobolarimizdan qolgan ushbu tabarruk maskanni sadoqat bilan asrab-avaylasa, madaniy merosimiz va qadriyatlarimizni e'zozlasa, shoirning orzulari ham haqiqatga aylanadi.

She'rlarida xalq jonli tilidagi so'zlardan unumli foydalangan shoir ayrim unutila boshlangan so'zlarga go'yo qayta jon baxsh etadi. Shoirning bu xizmati o'zbek tili ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mana bu misralarda ham xuddi shu hodisani kuzatish mumkin:

*Men sekin kuzatdim shitob dunyoni,
Nechog' omonatdir odamzot joni.
Qo'ling endi oshga yetgani oni,
Boshingga nogahon cho'qmor tushmasin .*

Xalq hayotini tiyrak nigoh ila kuzatgan shoir uning taqdiri haqida qayg'uradi. O'zbek xonadonlarida farzandini voyaga yetkazib, ilm-hunarli, uyli-joyli qilib, ya'ni "og'zi oshga yetgan" pallada omonatini topshirganlar ko'plab uchraydi. Shoir farzandining baxtu kamolini ko'rishni orzu qilgan kishilarga uzoq umr tilagan holda ularning boshiga *cho'qmor*, ya'ni o'lim shabadasi, qora kunlar tushmasligini tilaydi. Xalqona iboralarni o'z ijodida yuksak mahorat bilan qo'llagan shoir qarilikni tan olib, keksalar tilidan shunday deydi:

*Uchar qushlar uchdi-ketdi,
Qo'llarimda pati qoldi.
Yoshlik ketdi, umrning ham
Sharti ketib, parti qoldi.*

"*Sharti ketib, parti qoldi*" iborasi qarib, kuch-quvvati ketib qolgan, munkillagan kishilarga nisbatan ishlatiladi [5]. O'zbek tilining ifoda imkoniyati nechog'liq katta ekanini isbotlaydigan, o'zbekcha so'zning nafosatini o'zida to'liq mujassam etgan bu ibora orqali Abdulla Oripov o'z umrining oxirlab borayotganiga ham nozik ishora qilganini payqash mumkin.

Shoirlik iste'dodining tabiati borliqdagi o'zgalar ilg'ay olmagan, hatto ilg'ashi mahol bo'lgan qonuniyatlarni, sir-sinoatlarni anglay bilish va mahorat bilan badiiy talqin etishda yaqqol namoyon bo'ladi. "Bahor" she'rida Abdulla Oripovning ijodkor sifatidagi ayni shu fazilati mukammal aks etgan. Birgina misol:

*Dilbar kelinchakning ko'zida g'ulu,
Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u...
Bahor tetapoya go'dakday shirin.
Yuksak arg'uvonning uchida hilol
Paxmoq bulutlarni etadi nimta.
Qaydadir shoira kuylaydi behol:
– Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimta.*

Iqtibos olingan satrlarda shoirning zakovati va iste'dodi to'laqonli tajassum topgan. Er jinsiga mansub ijodkorning ayol ruhiyatini, undagi inja holatni bu qadar ingichka tushunishi kamdan-kam kuzatiladi. Boshqorong'i kelinchak ruhiyati (*Dilbar kelinchakning ko'zida g'ulu, Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin*) tasviri... Ko'ngli qattiq qo'msagan narsaga intizor, lekin hayo qilib turgan kelinchakka hatto barglar orasidagi shu'lalar ham zardolu uzayotgan kaftga o'xshab ko'rinishi – shoirning hatto ayol ruhiyatini ham nozik ilg'ashi, bo'lajak ona tuyg'ularini daqiq tasvirley olishi isbotidir. Ushbu satrlarni tahlil qilar ekan, adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev mana bunday yozadi: "Shoirning mahorati bu o'rinda mim darajasiga ko'tariladi: u aytmaydi, ishora bilan anglatadi. U imlab ko'rsatgan joyd o'zbek qizining tug'ma andishasi, minglab yillik milliy madaniyati bo'y ko'rsatadi. Qanchalik g'o'ra yegisi kelmasin, buni boshqalarga bildirmaslik uchun fikru zikrini band qilgan o'rikka ochiq qaramay, ko'z qirini tashlash faqat o'zbek qiziga xos milliy xususiyat bo'lganidek, faqat Abdulla Orif bu holatda umr davomiyligi borligini ko'ra va ko'rsata bilgan milliy shoirdir" [3].

Bahorning *tetapoya go'dakday shirin* tarzida sifatlanishi – ifodaning bu qadar injaligi, tasvirning bunchalik san'atkorona ekani Abdulla Oripov iste'dodining darajasi qanchalik baland ekani isbotidir. Bu tasvir aynan xalqona uslub va yuksak san'atkorlik uyg'unligi mahsuli ekani jihatidan ham qimmatli. Professor Nurboy Jabborov topib aytganidek: "Abdulla Oripov ohori to'kilmagan tashbihlar qo'llaydi, mavzuga hech bir ijodkorda kuzatilmagan uslub va mezonlar asosida yondashadi".

*Uvada kamzulda billur tugmaday
Bulutlar ortidan boqadi yulduz.
Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,
Qaydadir qo'zigul yoradi ildiz.
Qaydadir gulshandan axtarib visol
Yel kezar – tog'larning go'zal arvohi.
Shoirning dilrabo baytlari misol
Oh tortib tizilar turnalar gohi.*

Bulutlarni uvada kamzulga, ular ortidagi yulduzni billur tugmaga o'xshatish – Abdulla Oripovgacha birorta ham shoirda uchramagan ohorli tashbeh! Shoir tabiatga jon ato etadi go'yo. Ijodkor satrlarini o'qir ekan, tasvirlanayotgan ob'ekt o'quvchi ko'z o'ngida yorqin obrazlar orqali suvratlanadi. She'r muhibi ruhiyatida sirli bir jarayon kechadi. Beixtiyor olamga o'zgacha, teranroq nazar bilan qaray boshlaydi. Har kuni ko'rib, bilib yurgan narsalari aslida u o'ylagandan ko'ra go'zalroq va mukammalroq ekanini his etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'onov D. Mamajonov Z. Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyanashr, 2013. – B. 341.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 519.
3. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 129.
4. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU. – B.251.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 228.
6. Azizovna Y.S. [On the Development of Expressive Learning Skills](https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444). International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (No. 5 (2023)), 313-316
<https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
7. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. *Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.